

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MA‘NAVIY-MA‘RIFIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

**Salimova Mahfuza Umidullo qizi**

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu ishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘qituvchining roli va o‘quv dasturlarining ahamiyati ta‘kidlanib, o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlar, mehnatni qadrlash va mas‘uliyatni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar orqali samarali ta‘lim usullari ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, ma‘naviy, ma‘rifiy, o‘quvchilar, tadbirlar, innovatsiya, texnologiyalar, faoliyat, shakl, metod, vosita, tabiatshunoslik, interfaol metod, metodologik, tabiiy bilimlar, didaktik asoslari, takomillashtirish, aniqlash.

Mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta‘lim-tarbiyaning uzluksizligini ta‘minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ta‘lim-tarbiya jarayonining uzviyligini ta‘minlaydi.

Boshlang‘ich sinflarda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish faqat o‘quvchlarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya‘ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg‘otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to‘ldirishdan iboratdir. Xuddi dars jarayonida bo‘lgani kabi ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil qilishda ham sinf o‘qituvchisining vazifasi mas‘uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas‘uliyat ulardan doimiy ravishda o‘z ustida ishlash, ijodiy mehnatni talab qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil faoliyatini tashkil qilishga yo‘naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati - o‘quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. O‘quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa, bular orqali bilimi va ma‘naviy dunyosi boyib boradi (ilovada 6-rasm).

Ayniqsa, ular bugungi kunda o‘quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o‘stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari

mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'ziga xos belgilar, bir-biridan farq qiluvchi shakllar, vositalar, ijodiy mehnatni talab qiladi. Sinf dan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlar o'qituvchilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'quvchilik davri, ya'ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi. Mazkur tadbirlarga "Mustaqillik" bayrami, "Kuz" bayrami, "Konstitutsiya" kuni, "Alifbo" bayramlari, "Yangi yil", "Harbiylar" kuni, "Mashhur allomalarning tug'ilgan kunlari", "8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni", "Navro'z" bayrami, "Gullar", "Mehrijon" kabilarni keltirish mumkin [43; 52-b.].

Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zaruriyati alohida ta'kidlangan: siyosiy tuzumning o'zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillari g'oyalari, ish uslublarini ishlab chiqish hamda o'qituvchining ijodkorlik faoliyatini yanada takomillashtirish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish jarayonida o'quvchilar jamoasini tashkil qilish, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib, ilg'or tajribalarga suyanib o'quvchilarni tarbiyaviy jarayonda o'rtoqlik-do'stlik, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini tarbiyalash mahoratini o'zlashtirishdan iborat. Ular:

- sinfning boshlang'ich jamoasini tarbiyalash va ularda o'zaro munosabat aloqalarini yaratish.
- o'quvchilar kundalik faoliyatining hamma qiralarida jamoaga jipslashtirish.
- shaxsiy manfaatdan jamoa manfaatini yuqori qo'yishga o'rgatish.
- jamoada bir-biriga mehr-oqibatli, muruvvat va sahiylik, do'stona hamkorlik mavjud bo'lsa, u katta tarbiyaviy kuchga aylanadi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari jamoasini tashkil qilishda o'qituvchilar interfaol metodlardan mahorat bilan foydalanish talab qilinadi [18; 87-b.].  
Jumladan:

1. O'qituvchi jamoasi yangi sharoitga moslashuv davrida ularga ishonch, hurmat, xushmuomalalik, talablarni to'g'ri qo'ya bilish shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bo'lish talab etiladi;
2. O'quvchilar jamoasiga yetaklovchi kuch tayanch o'zagini tanlash;
3. Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarb topshiriqlar berish;

4. Jamoada yangi an'ana, qonun-qoidalarni dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan quyidagi interfaol metodlardan foydalanildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston. 1992.-B.65.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O'RQ -637 son.
3. Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabrdagi BMT Bosh Assambleya-sining 72-sessiyasidagi nutqi. <https://tma.uz/wp-content/uploads/2017/09/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - T.: -2017. 6-son. 70-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son farmoni. -T.: 2018.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son farmoni//<https://lex.uz/docs/4500926>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son **"Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni** // <https://lex.uz/pdfs/5073447>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi "Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida "Prezident maktablarini ochish to'g'risida"gi PQ-4199-son qarori.T.: 2018.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 iyuldagi 559-son "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori // <https://lex.uz/docs/4494504>.